

**COVID-19 BILAN KASALLANGAN BOLALARDA PREMORBID FON KASALLIKLARNI UCHRASHINI BAHOLASH**

**Ashurova Aziza Shuxratovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

**Dolzarbliyi:** Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga kura pnevmoniya, ayniqsa, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallanish va o'lim darajasi yuqori bo'lganligi sababli pediatriyaning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati jamiyat tomonidan olingan og'ir pnevmoniya va undan kelib chiqadigan asoratlar bilan bog'liq. Biroq, SARS-CoV-2 COVID-19 bilan og'riganidan keyin ambulatoriya amaliyotida ustunlik qiladigan jamoat tomonidan olingan pnevmonianing yengil va o'rta og'ir shakllari tadqiqotchilar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi.

So'nggi yillarda havoning ifloslanish darajasi sezilarli darajada oshdi va buni tasdiqlovchi ko'plab dalillar mavjud mayda zararlovchi zarrachalar ta'sirida nafas olishni salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ekologik ta'sirning sog'liqga ta'siri prenatal davrda havoning ifloslanishiga, ayniqsa o'pka bronx organogeneziga ta'sir qilishi mumkin.

**Tadqiqot maqsadi:** Covid-19 bilan kasallangan bolalarda premorbid fon kasalliklarni uchrashini baholashdan iborat.

**Tadqiqot usullari va natijalari:** Tadqiqot tekshiruvni Surhondaryo viloyat bolalar kop tarmoqli tibbiyot markazi va Termiz shahar bolalar yuqumli kasalliklari Arhiv xonasidagi 2019-2021 yilgacha bo'lgan muddatda Covid-19 bilan kasallangan bolalarning kasallik tarixi retrospektiv tahlili olib borildi. Tekshiruvda 100 nafar 5 yoshgacha bo'lgan bolalar olindi. Tekshiruvmizdagi bemor bolalar jins buyicha deyarli farq kuzatilmadi.

Bemorlar onasida epidemiologik anamneziga surab-surishtiruvga ko'ra xomiladorlik davrida asosan anemiya (46%) va xomiladorlik toksikozi (34%) uchradi.

Kuzatuvdagagi asosiy guruh bemorlarda premorbid fon kasalliklar jami 68 nafar (75,5%) bemorlarda uchradi. Yoshi bo'yicha guruhlanganda 1-3 yosh bolalarning 13 nafarida (76,5%), 3-5 yosh bolalarning 26 nafarida (72%), 5 yoshdan yuqori bolalarning 29 nafarida (78%) premorbid fon kasalliklar uchradi. Premorbid fon kasalliklar tahlilida barcha yoshdagilarda quyidagicha natijalar olindi: Asosan, anemiya I-II daraja 20 nafar (22%),

dizbakterioz 19 nafar (21%), Asab tizimining perinatal shikastlanishi (ATPSH) 10 nafar (11%) bemorlarda kuzatildi. Kam nisbatta, raxit I-II daraja 6 nafar (7%), oqsil energetik yetishmovchilik (OEE) 8 nafar (9%), ekssudativ kataral diatez 5 nafar (5,5%) bemorlarda aniqlanib barcha xolatlarda bronxopnevmoniya bilan asoratlandi. Nazorat guruhidagi bemorlarning 32 nafarida (64%) fon kasalliklar aniqlanib shundan 9 nafari (18%) anemiya, 12 nafari (24%), dizbakterioz, 9 nafari (18%) ATPSh, 1 nafardan (2%) bemorlar raxit va ekssudativ kataral diatez bilan og'riganliklari kuzatildi.

**Xulosa:** Covid-19 bilan kasallangan bolalarda premorbid fonga ega bo'lmagan bolalarda nisbatan o'pka-bronx kasalligi atipik (subklinik) shakllarda kechganligi tufayli ularni boshqa bronx-o'pka kasalliklari bilan qiyosiy taqqoslab tashxis qo'yish muxim axamiyatga ega. Aks holda ushbu yengil shaklda kechayotgan o'pka-bronx kasalliklari bolalar atrofidagilar uchun infeksiya manbai bo'lib hisoblanadi.